

HALQA TAKRORINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Abdishukur Musayevich Shofqorov,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

shofqorov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Hamid Olimjon she'riyatida qo'llangan halqa takrorining lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilindi. Halqa takrorining nazariy mohiyati, o'zbek mumtoz adabiyotidagi raddi matla' san'ati bilan tarixiy-tipologik bog'liqligi hamda zamonaviy o'zbek she'riyatidagi vazifaviy shakllari yoritildi. Shoirning "Ozar qizi", "Holbuki, tun...", "O'rik gullaganda", "O'zbekiston" kabi she'rlari misolida halqa takrorining misra va band ko'rinishlari kompozitsion, semantik hamda emotsional-ekspressiv jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida halqa takrorining she'riy matn kompozitsion yaxlitligini ta'minlash, g'oyaviy markazni kuchaytirish va poetik ritmni barqarorlashtirishdagi o'rni aniqlandi. Shuningdek, Hamid Olimjon ijodida halqa takrorining o'zgarmas va o'zgaruvchan shakllarda qo'llanishi, ularning semantik-stilistik vazifalari ochib berildi.

Kalit so'zlar: halqa takrori, lingvopoetika, badiiy takror, raddi matla', poetik sintaksis, semantik transformatsiya, stilistik vosita, poetik matn.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвопоэтические особенности кольцевого повторения, используемого в поэзии Хамида Олимджана. Раскрыта теоретическая сущность циклического повторения, его историко-типологическая взаимосвязь с искусством рaddи матла' в классической узбекской литературе и его функциональные формы в современной узбекской поэзии. На примере таких произведений поэта, как "Ozar kizi," "Xolbuki, tun...," "O'rik gullaganda," "O'zbekiston," рассматриваются строковые и строфные формы кольцевого повторения с композиционной, семантической и эмоционально-выразительной точек зрения. В исследовании определяется роль циклического повторения в обеспечении композиционной целостности поэтического текста, усилении идейного центра и стабилизации поэтического ритма. Также раскрывается использование фиксированных и переменных форм циклического повторения в творчестве Хамида Олимджана и уточняется их семантико-стилистическая функция.

Ключевые слова: кольцевое повторение, лингвопоэтика, художественное повторение, raddi matla', поэтический синтаксис, семантическая трансформация, стилистический прием, поэтический текст.

Abstract. This article analyzes the linguopoetic features of ring repetition employed in the poetry of Hamid Olimjon. The theoretical essence of ring repetition, its historical-typological relationship with the art of raddi matla' in classical uzbek literature, and its functional forms in modern uzbek poetry are elucidated. Using the poet's works such as "Ozar qizi," "Holbuki, tun...," "O'rik gullaganda," and "O'zbekiston" as examples, the line- and stanza-based forms of ring repetition are examined from compositional, semantic, and emotional-expressive perspectives. The study determines the role of ring repetition in ensuring the compositional integrity of poetic text, intensifying the ideological center, and stabilizing poetic rhythm. It also reveals the use of fixed and variable forms of ring repetition in Hamid Olimjon's work and clarifies their semantic-stylistic functions.

Keywords: ring repetition, linguopoetics, artistic repetition, raddi matla', poetic syntax, semantic transformation, stylistic device, poetic text.

Kirish. She'riyatda keng qo'llanadigan badiiy takror turlaridan biri halqa takroridir. Ushbu usulda she'ring boshida keltirilgan misra yoki band asar yakunida yana takrorlanadi. Bu matnning ichki uyg'unligini ta'minlab, uning boshlanishi va tugashini o'zaro bog'laydi. Halqa takrorining asosiy mohiyati shundan iboratki, u she'ring

dastlabki g‘oyasini yakunda yana bir bor eslatish orqali o‘quvchi ongida mustahkamlaydi va mazmuniy yakuniylik hissini kuchaytiradi.

Halqa takrori nafaqat shakliy, balki semantik ahamiyatga ham ega. She‘r boshida berilgan misra odatda asosiy g‘oya yoki obrazni ifodalaydi, she‘r oxirida ushbu misraning takrorlanishi g‘oyani yangi kontekstda, chuqurlashtirilgan ma‘noda namoyon etadi. Matn ichida ma‘no aylanishi yuz beradi, ya‘ni boshlang‘ich fikr yakunda boyitilgan holda qayta tiklanadi. Bu holat she‘riy nutqda mantiqiy yaxlitlikni kuchaytiradi hamda asarning ichki mazmuniy tuzilishi mustahkamligini ta‘minlaydi. Halqa takrorining yana bir muhim jihati uning emotsional-ekspressiv ta‘siridir. Takrorlangan misra o‘quvchining diqqatini markaziy nuqtaga jamlaydi. She‘rning umumiy ohangini kuchaytiradi va estetik ta‘sirchanlikni oshiradi. Shu bilan birga, u poetik ritmni barqarorlashtiradi, matnning esda qolish darajasini oshiradi. Ayrim hollarda halqa takrori to‘liq shaklda, ya‘ni boshlang‘ich misra o‘zgarmagan holda takrorlansa, ba‘zan leksik yoki grammatik jihatdan qisman o‘zgaradi. Shunday qilib, halqa takrori she‘riy nutqda muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘lib, u matnning shakliy tuzilishini mukammallashtiradi, mazmunini chuqurlashtiradi va o‘quvchiga kuchli estetik ta‘sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Y.Is‘hoqov “Bu san‘atning o‘zbek adabiyotidagi shakllanishi hamda taraqqiyoti Alisher Navoiy ijodi bilan bog‘liq ekanligini ta‘kidlaydi” [5.77.]. Arabcha “matla‘ning qaytarilishi, takrorlanishi” ma‘nolarini bildiruvchi radd ul-matla‘ takrori mumtoz adabiyotimizda, asosan, g‘azal va qasida janrlarida ko‘proq qo‘llangan. A.Hojjahmedov bu haqida fikr bildirib, uning “raddi matla‘” deb nomlanishini qayd qiladi hamda g‘azalning birinchi misrasi takrori nazarda tutilishini quyidagicha ifodalaydi. “Bu san‘at mumtoz she‘riyatimizda raddi matla‘ deb yuritilgan. “Raddi matla‘”, asosan, “matla‘ni takrorlash” degan ma‘noni ifodalaydi. Lekin ushbu san‘at ko‘pincha g‘azalning birinchi misrasini asar oxirida takrorlashni nazarda tutadi” [9.109]. Bundan uning nomida ma‘lum shartlilik mavjud ekanligi namoyon bo‘ladi, ya‘ni “U matla‘ning qaytarilishi, takrorlanishi deb atalsa-da, aslida matla‘ning bir misrasi – yarmi takrorlanadi” [5.77].

Raddi matla‘ takrorining mumtoz adabiyotimizda misra, bayt takrorlari, asosan, qasida va g‘azalga xos bo‘lib, hozirgi zamon o‘zbek adabiyotida, jumladan, barmoq vaznida misra yoki band shaklidagi takrorlar halqa nomi bilan yuritiladi.

Halqa takrori she‘r boshidagi misra, bayt, bandning she‘r oxirida takror kelib halqa hosil qilishidan iborat. Bunda halqa misra, bayt, band shaklida takrorlanadi. Halqaning boshqa takrorlardan farqi shundaki, u she‘rning yaxlitligini ta‘minlaydi. She‘r boshida berilgan fikr she‘r davomida rivojlanib boradi va uning oxirida umumlashtiriladi. “Halqa, birinchidan, she‘r g‘oyasini ko‘rsatsa, ikkinchidan, she‘rning boshqa bandlarini o‘z doirasiga qamrab oladi – she‘rning kompozitsion bir butunligini vujudga keltiradi” [9; 98-b.].

Hamid Olimjon she‘rlarida halqa takrori o‘ziga xos shaklda mahorat bilan qo‘llangan. Shoirning “Ozar qizi”, Nima bizga Amerika”, “Baxtlar vodiysi”, “Bahri”,

“Holbuki, tun...”, O‘rik gullaganda”, O‘zbekiston”, “Samolyot”, “Meni kutgil”, “Uchrashuv” kabi o‘nlab she‘rlarida halqa takrorining xarakterli namunalarini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Hamid Olimjon she‘riyatida qo‘llangan halqa takrorining lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash maqsadida tavsifiy, lingvopoetik hamda qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida shoirning “Ozar qizi”, “Holbuki, tun...”, “O‘rik gullaganda”, “O‘zbekiston” kabi she‘rlaridagi misra va band shaklidagi takrorlar struktur-semantik hamda uslubiy jihatdan tahlil qilinib, ularning poetik matn kompozitsiyasidagi vazifasi ochib berildi. Shuningdek, halqa takrorining mumtoz adabiyotdagi raddi matla‘ san‘ati bilan tarixiy-tipologik aloqalari qiyosiy yondashuv asosida o‘rganilib, takrorlarning emotsional-ekspressiv va g‘oyaviy-estetik funksiyalari matn tahlili orqali yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Hamid Olimjon she‘riyatida halqa takrorining ikki xil shakli: misra va band takrorlari mavjud. Shoir “Baxtlar vodiysi”, “Holbuki, tun...”, “Meni kutgil” kabi she‘rlarida misra takroridan; “Uchrashuv”, “Ozar qizi”, Nima bizga Amerika”, “Bahri”, O‘rik gullaganda”, O‘zbekiston”, “Samolyot” kabi she‘rlarida band takroridan mahorat bilan foydalangan. Ushbu she‘rlarning ba‘zilarini tahlil qilamiz.

Hamid Olimjonning “Ozar qizi” she‘rida qo‘llangan band ko‘rinishidagi halqa takrori muhim lingvopoetik funksiyani bajargan.

*Xazardan yumshoq bir yel esib,
Bir bahor xabari keltirdi,
Tingladim yo‘llarni men to‘sib,
Sevinchlar har yonni to‘ldirdi.*

... ..

*Xazardan yumshoq bir yel esib,
Bir bahor xabari keltirdi,
Tingladim yo‘llarni men to‘sib:
– “Chodraning siynasi yirtildi!”*

She‘r boshida kelgan bandning keyinchalik takrorlanishi matnning kompozitsion yaxlitligini ta‘minlab, unga halqasimon qurilish bag‘ishlaydi. Mazkur takror she‘rning tayanch nuqtasi sifatida xizmat qilib, boshlang‘ich poetik tasvir bilan keyingi voqelik rivojini semantik jihatdan bog‘laydi. Takrorlangan band she‘rning g‘oyaviy-semantik markazini ham tashkil etadi. Undagi “yumshoq yel” va “bahor xabari” obrazlari yangilanish, ozodlik va ijtimoiy uyg‘onishning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Halqa takrori emotsional-ekspressiv jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bandning dastlabki qo‘llanishida u umid, kutish va ichki intizorlik kayfiyatini ifodalasa, ikkinchi takrorida “Chodraning siynasi yirtildi!” misrasi bilan bog‘lanib, ushbu kutilgan o‘zgarishning real voqelikka aylanganini bildiradi. Natijada takror oddiy qaytariq emas,

balki semantik jihatdan yangilangan holda kulminatsion ma'no kasb etadi. Bu esa she'rda emotsional gradatsiyani yuzaga keltirib, poetik ta'sirchanlikni kuchaytiradi.

Shoirning "Holbuki, tun..." she'rida misra takrori qo'llangan. Bu "Shag'irlyaydi betinim daryo" misrasi bo'lib, bu misra she'rning boshida va oxirgi misrasida qo'llanadi. Matnga halqasimon kompozitsiya beradi hamda lirik kechinmaning ichki yaxlitligini ta'minlaydi. Takror orqali she'rning boshlanish nuqtasi bilan yakuni o'zaro semantik bog'langan. Poetik tafakkurning aylanma harakati yuzaga keladi.

Birinchi band:

*Shag'irlyaydi betinim daryo,
Shag'irlyaydi vahm to'lgan jar,
Shag'irlyaydi qorong'i dunyo,
Shag'irlyaydi vodiy, daralar.*

Oxirgi band:

*Shag'irlardi osmon va havo,
Shag'irlardi butun koinot,
Shag'irlardi betinim daryo
Shag'irlardi daryoda hayot...
Holbuki, tun...*

"Tun" odatda sokinlik, sukunat va uyqu bilan bog'liq holatni anglatadi. Ammo she'r davomida aynan shu tun shoir idrokida jonlangan, harakatga to'la, "shag'irlyaydigan" borliq sifatida tasvirlanadi. Natijada "Holbuki, tun..." misrasi odatiy tasavvur bilan poetik voqelik o'rtasidagi ziddiyatni yuzaga chiqaruvchi semantik signal vazifasini bajaradi. She'r oxirida ayni misraning takrorlanishi esa o'quvchini yana boshlang'ich nuqtaga qaytaradi, biroq bu qaytish endi yangilangan idrok asosida sodir bo'ladi. Tun avvalgi oddiy tun emas, balki ilhom, tafakkur va ruhiy uyg'onish makoni sifatida qabul qilinadi. "Holbuki, tun..." she'ridagi misra shaklidagi halqa takrori semantik kontrast yaratish, lirik kechinmaning transformatsiyasini ifodalash hamda poetik ritmni tashkil etish orqali asarning lingvopoetik yaxlitligini ta'minlaydi. U oddiy takror emas, balki she'rning falsafiy-estetik markazini shakllantiruvchi yetakchi poetik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Hamid Olimjonning "O'rik gullaganda" she'rida halqa takrorining o'zgacha shaklini kuzatishimiz mumkin.

*Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...
Novdalarni bezab g'unchalar,
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.*

... ..

Derazamning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Bunda she'r boshidagi ikki misra she'r "*Derazamning oldida bir tup O'rik oppoq bo'lib gulladi...*" she'r oxirida takrorlanadi. She'rning asosiy g'oyasi shu ikki misraga singdirilgan. She'r shu misralar bilan boshlanadi. Bu ikki misra bahorning bor tarovatini yodga soladi. Bu takror asarning asosiy poetik tayanchlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur bandning she'r boshida va oxirida takrorlanishi matnga halqasimon kompozitsiya berib, lirik kechinmaning ichki tugalligi va semantik yaxlitligini ta'minlaydi. Takror orqali she'rning boshlanish va yakun nuqtalari o'zaro ulanib, poetik fikr aylanma kompozitsiya asosida tashkil etiladi. Ushbu takrorning muhim lingvopoetik xususiyati uning ramziy semantik markaz vazifasini bajarishidir. "O'rikning oppoq gullashi" she'rda oddiy tabiat hodisasi emas, balki bahor, hayot, umid, go'zallik va baxtning poetik timsoli sifatida talqin qilinadi. Shu bois ushbu obrazning takrorlanishi she'rning butun g'oyaviy yukini o'zida jamlaydi va uni semantik dominantga aylantiradi. She'r boshida u bahorning tabiiy manzarasi sifatida qabul qilinsa, she'r oxiriga kelib mazkur manzara insoniy baxt, tarixiy mas'uliyat va yashash huquqining falsafiy timsoliga aylanadi. Demak, takror ayni shaklda takrorlangan bo'lsa-da, kontekst o'zgarishi natijasida yangi ma'no qatlami bilan boyiydi.

Asar boshida lirik qahramon tabiat hodisasini kuzatuvchi subyekt sifatida namoyon bo'lsa, she'r davomida bu kuzatuv ichki mushohada, baxt haqidagi falsafiy tafakkur va hayotiy xulosaga aylanadi. Yakundagi takror esa ana shu ruhiy jarayonning poetik natijasi sifatida yangraydi. Boshlang'ich tasvir endi oddiy manzara emas, balki chuqur hayotiy-falsafiy mazmun yuklangan obrazga aylanadi. Ushbu takror she'rning estetik va g'oyaviy ta'sirchanligini oshiruvchi yetakchi poetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'rida qo'llangan band shaklidagi halqa takrori asarning muhim lingvopoetik unsurlaridan biri hisoblanadi.

Vodiylarni yayov kezganda,

Bir ajib his bor edi manda.

Chappar urib gullagan bog'in,

O'par edim vatan tuprog'in.

Odamlardan tinglab hikoya

O'sar edi shoirda g'oya.

... ..

Vodiylarni yayov kezganda,

Bir ajib his bor edi menda

She'r boshida keltirilgan "Vodiylarni yayov kezganda..." bandining she'r oxirida takrorlanishi matnga halqasimon kompozitsion tuzilish baxsh etadi va uning ichki semantik yaxlitligini ta'minlaydi. Mazkur takror vositasida she'rning boshlanishi va

tugashi o‘zaro bog‘lanib, poetik matn yopiq va mukammal badiiy konstruktsiya sifatida shakllanadi.

Halqa takrorining asosiy lingvopoetik xususiyatlaridan biri shundaki, u she‘r davomida rivojlangan poetik mazmuni yakuniy nuqtada umumlashtiradi va markazlashtiradi. She‘r boshida “Bir ajib his bor edi menda” misrasi orqali ifodalangan kechinma dastlab to‘liq anglanmagan hissiy holat sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq she‘r davomida O‘zbekistonning tabiati, mehnatkash xalqi, boyligi, go‘zalligi va qudrati tasvirlangach, ayni bandning takrorlanishi ushbu hissiyotning mazmunan boyigan, semantik jihatdan chuqurlashgan holda qayta idrok etilishiga olib keladi. Takror bir xil shakliy birlikning oddiy qaytarilishi bo‘lib qolmay, yangi kontekst ta‘sirida yangicha ma‘no kasb etadi. Takror natijasida asarda tasvirlangan barcha poetik detallar yakunda yagona hissiy markazga birlashadi va vatanga bo‘lgan muhabbatning kuchli lirik ifodasiga aylanadi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, Hamid Olimjon she‘riyatida halqa takrori badiiy vosita sifatida izchil va maqsadli qo‘llangan. Ushbu usulning ikki asosiy turi farqlanadi. Birinchisi – she‘r boshida kelgan misra yoki bandning aynan she‘r oxirida takrorlanishi; ikkinchisi – boshlang‘ich misra yoki bandning nafaqat oxirda, balki matnning o‘rta qismida ham bir yoki bir necha marotaba qaytarilishi. Har ikkala holatda ham halqa takrori she‘riy matnning semantik yaxlitligini ta‘minlovchi muhim uslubiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoir ijodida she‘r boshida kelgan misra yoki bandning aynan she‘r oxirida takrorlanishi “Holbuki, tun...”, “Uchrashuv”, “O‘rik gullaganda”, “O‘zbekiston”, “Samolyot” kabi she‘rlarida qo‘llangan bo‘lsa, “Baxtlar vodiysi”, “Meni kutgil”, “Ozar qizi”, “Nima bizga Amerika”, “Bahri” she‘rlarida dastlabki misra va band she‘rning turli qismlarida takrorlanishi asosida semantik-stilistik vazifa bajargan. Birinchi turda halqa takrori she‘r boshida ilgari surilgan asosiy fikrni yakunda qayta tiklash orqali matni kompozitsion jihatdan “yopadi”. Bu holatda boshlang‘ich misra g‘oyaviy markaz vazifasini bajaradi va oxirgi takror orqali mazmuniy urg‘u kuchaytiriladi. Natijada, o‘quvchi ongida dastlab berilgan g‘oya mustahkamlanadi. Bu usul, ayniqsa, lirik kechinmalarni umumlashtirish va muallif pozitsiyasini ta‘kidlashda samarali hisoblanadi.

Ikkinchi turda esa halqa takrori yanada murakkab kompozitsion tizimni yuzaga keltiradi. She‘r o‘rtasida keltirilgan takrorlar matnning ichki strukturaviy bog‘liqligini kuchaytiradi. O‘rtadagi birinchi takror o‘zidan avvalgi misralarni semantik jihatdan umumlashtiradi, ularning mazmunini o‘zida jamlaydi va shu orqali oldingi kontekstning hosilasi sifatida namoyon bo‘ladi. Keyingi takror esa aksincha, o‘zidan keyingi misralarni mazmuniy jihatdan yo‘naltiradi, ularni yagona g‘oyaviy oqimga birlashtiradi. Bunday qurilishda birinchi va ikkinchi takror oralig‘idagi misralar muayyan semantik “maydon” hosil qiladi. Ushbu maydon halqa elementlari tomonidan qurshab olinadi va natijada matn

ichida yopiq, lekin izchil rivojlanadigan ma'no tizimi shakllanadi. Bu esa she'rning ichki kompozitsiyasini mustahkamlaydi hamda o'quvchi diqqatini asosiy g'oyaga yo'naltiradi.

Halqa takrorining yana bir muhim xususiyati shundaki, u oddiy fonetik yoki leksik takrordan farqli ravishda kengroq semantik vazifani bajaradi. Tovush yoki alohida so'z takrori ko'proq ritmik va ohangdorlik vazifasini bajarsa, halqa takrori butun matn darajasida ishlaydi va g'oyaviy yaxlitlikni ta'minlaydi. She'r boshida ifodalangan fikr oxirida takrorlanganda, u yangi kontekstda qayta talqin qilinadi, mazmunan boyiydi va yanada chuqurroq ma'no kasb etadi.

Shoir ijodida halqa takrorining ikki xil ko'rinishi – o'zgarmas va o'zgaruvchan shakllari ham kuzatiladi. O'zgarmas takrorda boshlang'ich misra yoki band hech qanday leksik yoki sintaktik o'zgarishsiz qaytariladi. Bu usul g'oyani qat'iy ta'kidlash, uning o'zgarmasligini ko'rsatish vazifasini bajaradi. Buni shoirning "Uchrashuv", "O'rik gullaganda", "O'zbekiston", "Samolyot", "Baxtlar vodiysi", "Meni kutgil", "Bahri" kabi she'rlarida uchramiz. O'zgaruvchan takrorda esa boshlang'ich misra tarkibidagi ayrim so'zlar yoki birikmalar o'zgartiriladi. Xususan, shoirning "Holbuki, tun...", "Ozar qizi", "Nima bizga Amerika", kabi she'rlarida shunday takrorlar mavjud. Bunday o'zgarishlar tasodifiy emas, balki ma'lum uslubiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, fikrni yangicha talqinda taqdim etadi yoki emotsional-ekspressiv ta'sirni kuchaytiradi. Halqa takrori Hamid Olimjon she'riyatida nafaqat badiiy bezak, balki murakkab lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'lib, matnning semantik yaxlitligini ta'minlash, g'oyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Shoir ijodida badiiy tasviriy vositalar faqat bezak vazifasini bajarmaydi, balki g'oyaviy mazmunni ochish, lirik qahramon ruhiyatini ifodalash va o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatishda faol lingvopoetik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Xususan, takror vositalari orqali ritmik-melodik tuzilma mustahkamlangan, semantik urg'u kuchaytirilgan va matn qismlari o'rtasida ichki bog'liqlik ta'minlangan.

Xulosa. Halqa usulida matn o'rtasidagi birinchi takror misra yoki band o'zidan avvalgi misralarni o'ziga tortadi, jalb qiladi, o'zidan oldingi misralar ma'nosining hosilasi tarzida namoyon bo'ladi. Matn o'rtasidagi ikkinchi takror esa o'zidan keyingi misralarni mazmun jihatdan o'ziga tortib uyushtiradi. Shoir she'rlarida halqa takrori boshqa takrorlardan farqli ravishda she'rdagi umumiy g'oyani, ma'noni bir butunlikda ifodalashga xizmat qilgan.

Hamid Olimjon she'rlarida halqa takrori vositasida she'r boshida biror fikr aytilib, uning takror qo'llanishi natijasida fikr rivojlantirilgan, she'r oxirida yana shu fikrga qaytilgan. Halqa takrori shoir she'rlarida o'zgarmasdan, ya'ni she'r boshida qanday bo'lsa shundayligicha va o'zgarib takrorlangan. Halqa takrorining o'zgarib takrorlanishida she'r boshidagi misra yoki bandning she'r oxirida ma'lum so'z va so'z birikmalarida o'zgarish yuzaga kelgan bo'lib, bu muayyan semantik-stilistik vazifani bajarish maqsadida amalga oshirilgan.

Umuman olganda, Hamid Olimjonning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati uning she'riyatining asosiy badiiy-estetik xususiyatlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shoir turli lingvopoetik vositalarni o'zaro uyg'un va tizimli ravishda qo'llab, she'riy nutqning ifodaviyligini, ta'sirchanligini va mazmuniy chuqurligini ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmonov V. (2020). She'r san'atlari. – Toshkent: Sharq, – 240 b.
2. Umurqulov B. (2024). Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Dimal, – 106 b.
3. Shofqorov A. (2026). Phonetic repeat: linguopoetic analysis and methodological possibilities. Eureka Journal of Language, Culture & Social Change. 2(2), – pp. 270-280.
4. Бобоев Т., Бобоева З. (2001). Бадий санъатлар. – Т.: ТДПУ, – 122 б.
5. Исхоқов Ё. (1973). Радд ул-матлаъ. Ўзбек тили ва адабиёти, 01, 77-78.
6. Каримов С. (2016). Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ, – 160 б.
7. Олимжон Ҳамид (1951). Танланган асарлар. – Тошкент: – 526 б.
8. Шофқоров А. (2011). Повторение в поэзии Миртемира. Вестник Челябинского государственного университета. 25(240), – С. 167-170.
9. Ҳожиаҳмедов А. (1999). Мумтоз бадийят малоҳати. – Т.: Шарқ, – 240 б.

